

5 E MODELI ORQALI O'QUVCHILARDA KREATIV FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISH (MATEMATIKA FANI MISOLIDA)

Mansurova Umida Mansur qizi

Buxoro davlat pedagogika instituti magistri

4-sinf: matematika (dars ishlanma)

Mavzu: Yuza va perimetr

Dars turi: yangi tushuncha va bilimlarni shakllantiruvchi.

Darsning maqsadlari:

Talimiy: Geometrik shakllarning yuzasini va perimetrini hisoblash formulasi va amaliy qo'llanilishini o'rgatish.

Tarbiyaviy: O'quvchilarni mantiqiy fikrlashga va kreativ yondashuvga yo'naltirish.

Rivojlantiruvchi: 5 E modeli asosida o'quvchilarning kreativ fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish.

Kerakli materiallar: geometric shakllar, markerlar, interaktiv doska, masalalar yozilgan doska, masalalar yozilgan kartochkalar.

Dars metodlari: savol-javob, sherigini top metodi.

Darsning borishi:

I. Tashkiliy qism: o'z ichiga salomlashish, navbatchi axboroti, darsga tayyorgarlikni oladi.

II. O'tilgan mavzuni takrorlash: o'quvchilarda "vaqt" mavzusida savol-javob o'tkazish. So'ngra o'tilgan mavzu yuzasidan "Singan tuxum" o'yini o'tkaziladi.

"Singan tuxum" metodi

1. Bir sutka necha soat?

2. 1 d necha soatga teng?

3. $d + 234h = ?$

4. $6d - 68h = ?$

"Singan tuxum" metodida singan tuxumlarning bir tomonida savollar bir tomonida javoblar yoziladi o'quvchilar savollarga mos javoblarni topib tuxum bo'laklarini birlashtiradilar.

III. Yangi mavzu bayoni:

5 E modeli bosqichlari asosida Bugungi mavzu o'quvchilarga yoritib berildi.

1. Engage (jalb qilish)

Vaqt: 5 daqiqa

• O'quvchilarni e'tiborini jalb qilish uchun kichik bir topshiriq beriladi:

"Bir shakl bor, uzunligi 5 sm, eni 4 sm. Bu shaklning yuzasi va perimetri necha

smdan iborat?”

- O'quvchilardan o'z fikrlarini aytib berish so'raladi.
- Savo: "To'g'ri to'rtburchakning yuzasini qanday topish mumkin?"

2.Explore (tadqiq qilish)

Vaqt:10 daqiqa

- O'quvchilarga to'g'ri to'rtburchakning qog'oz maketlari tarqatiladi.
- Ular ushbu maketlarni yuzasini va perimetrini hisoblash bo'yicha mustaqil ish olib borishadi.
- Jarayon davomida o'quvchilar bir-birlariga savollar berib, guruhlarda ishlashadi.

3.Explain (Tushuntirish)

Vaqt:10 daqiqa

- O'qituvchi to'g'ri to'rtburchakning yuzini va perimetrini hisoblash formulasini tushuntiradi.

MULOHAZALAR.

- $P=2x(a+b)$ to'g'ri tortburchakning perimetrini hisoblash formulasi.
- $S=axb$ to'g'ri tortburchakning yuzini hisoblash formulasi.
- $S=4xa^2$ kvadrat yuzini hisoblash formulasi
- "S=axb" (uzunlin va eni ko'paytiriladi).
- Misollar: O'qituvchi doskada bir nechta misol yechib ko'rsatadi.
- O'quvchilar o'zlari topgan natijalarni formula yordamida tasdiqlashadi.

4.Elaborate (kengaytirish)

Vaqt:10 daqiqa

- O'quvchilarga turli qiyinchilik darajasidagi masalalar beriladi:
 - To'g'ri to'rtburchakning eni 8 sm, eni 6 sm. yuzasini va perimetrini toping.
 - Shaklning bir tomoni 10 sm, ikkinchi tomoni esa nomalum. Yuzasi 50sm bo'lsa, ikkinchi tomonni toping
- * guruhlarda ishlash orqli har xil yechim yo'llarini muhokama qilishadi.
- * o'quvchilarni masalalarni kreativ tarzda yechishga undash: masalan, shakllarni turli materiallardan yasab, yuzasini va perimetrini hisoblash.

5. Evalute (Baholash)

Vaqt:5 daqiqa

- O'quvchilarga kichik test yoki masala beriladi:

"Agar to'g'ri tortburchakning uzunligi 12 sm eni 5 sm bolsa, uning yuzasi va perimetri qancha?"
- O'quvchilar o'z yechimlarini doskada korsatadilar.
- Baholash ish jarayonidagi faol ishtirok, to'g'ri javoblar va kreativ yondashuv e'tiborga olinadi.

Kutilayotgan natijalar:

1. O'quvchilar geometrik shakllarni yuzasini va perimetrini hisoblash formulasini tushunadilar va amalda qo'llay oladilar .
2. Ularning kreativ va mantiqiy fikrlash ko'nikmalari rivojlanadi.
3. Guruhlarda ishlash orqali o'z fikrlarini ochiq ifoda eta olishadi.

Uyga Vazifa:

- To'g'ri to'rtburchak shaklidagi o'z xonangizning pol yuzasini va perimetrini hisoblang.
- Shakllarning yuzasini va perimetrini toppish bo'yicha o'z masalangizni o'ylab toping va uni yeching.